



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024 yil 27-sentabr, № 199 (8822)

Juma Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



XAVFSIZLIK SOHASIDA AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-sentyabr kuni Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi Siyosiy byurosi a'zosi, Siyosiy-yuridik komissiyasi kotibi Chen Vensin boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Delegatsiya rahbari Chen Vensin davlatimiz rahbariga Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi do'stlik va barcha sharoitlarda strategik sheriklik munosabatlarni oliy darajada qabul qilingan qarorlar asosida rivojlantirish va mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik, kiberjinoyatchilik, narkotrafik kabi xavfsizlikka tahdid solayotgan an'anaviy va yangi xatarlarga qarshi kurashda amaliy hamkorlikni kengaytirish va sa'y-harakatlarni samarali muvofiqlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Shu kunlarda bo'lib o'tgan Huquqni muhofaza qilish faoliyati va xavfsizlik sohasidagi O'zbekiston – Xitoy hamkorlik mexanizmining birinchi yig'ilishi natijalari yuqori baholandi.

Shuningdek, mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTGA YO'NALTIRILGAN ISTIQBOLLI LOYIHALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 26-sentyabr kuni qurilish, ta'lim, turizm va sanoat sohasidagi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Ma'lumki, joriy yil 3-aprel kuni Yangi Toshkent shahrida ilk inshootlar qurilishi boshlangandi. Davlatimiz rahbari bu ulkan loyiha ilm-fan va ma'naviyat maskanlaridan boshlanayotganiga urg'u berib, "bular ma'rifati jamiyat barpo etish g'oyamizining asosi va namunasi bo'ladi", degan edi.

Shulardan biri – Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Adabiyot muzeyi va Milliy maqom markazini o'z ichiga olgan majmuadir. U jahonga mashhur "Zaha Hadid architects" kompaniyasi tomonidan loyihalashtirilgan. Bo'lajak majmua o'ziga xos dizayni va funktsionalligi bilan diqqatga sazovor. Unda estetika va qulaylik mohirona birlashtirilib, atrof-muhit bilan uyg'unlik hosil qilingan. Shu jihatlar bilan majmua kelgusida xalqaro turizm maskanlaridan biriga aylangani.

Yangi Toshkent uchun yana bir salohiyatli go'sha – Chirchiq daryosi. Aholi va mehmonlarga zamonaviy sharoitlar yaratish maqsadida uning 6 kilometr ga yaqin qismida dam olish hududi barpo etish mo'ljallangan. Buning uchun qirg'oqlar tartibiga keltirilib, ko'kalzamlashtiriladi. Mehmonxonalar, sog'lomlashtirish va ko'ngilochar maskanlar quriladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonning UNESCO bilan hamkorligi yanada mustahkamlanib bormoqda. Ushbu nufuzli tashkilot Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi 2025-yilda Samarqand shahrida o'tkazilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 15-martdagi qaroriga muvofiq tayyorgarlik boshlab yuborilgan.

Taqdimotda shu borada amalga oshirilayotgan ishlar hamda rejalarga to'g'risida axborot berildi. Xususan, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, UNESCO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi va boshqa tashkilotlar hamkorligida Samarqand shahridagi madaniy meros obyektlarini asrash, ular bo'yab sayohatlar va ko'rgazmalar tashkil etish choralarini ko'rilmoqda. Mehmonxonalar va tadbirlar o'tkaziladigan joylarda barcha sharoit yaratiladi. Sessiya ishtirokchilarining kelib ketishi, madaniy tadbirlar,

transport va tibbiy xizmatlar muvofiqlashtirib boriladi. Ijtimoiy sohadagi eng katta yo'nalishlardan biri bu – ta'lim. Aholisining ko'pchiligi yosh bo'lgan mamlakatimizda uning barcha bosqichlari izchil rivojlantirilmoqda. Xususan, oliy ta'limda ham yangi maskanlar qurilib, sharoitlar yaxshilanmoqda. Buxoro davlat universitetida 21 mingdan ziyod yoshlar o'qiydi, 10 ta fakultet, 8 ta yotoqxona bor. Lekin binolar shaharning turli hududlarida tarqoq joylashgan bo'lib, o'qituvchi va talabalarga noqulayliklar tug'dirmoqda. Shu bois Buxoro shahri cherkasida universitet uchun yangi kampus qurish rejalashtirilmoqda. 43 gektarda loyihalashtirilayotgan majmuada barcha fakultetlar, ma'muriyat, yotoqxonalar, laboratoriyalar, kutubxona, stadion, sport zali va amfiteatr yaxlit joylashadi. Dars va amaliyot uchun zamonaviy sharoitlar yaratiladi. Yotoqxona o'rni 3 mingdan 6 mingtaga oshadi. Bo'sh maydonlarga daraxtlar ekilib, bog' barpo etiladi.

Xiva shahri yurtimizning turizm manzillaridan biridir. So'nggi yillardagi bunyodkorlik ishlari natijasida uning salohiyati yanada oshdi. Bu yerga keluvchilarga qulaylik yaratish maqsadida poyezd vokzali yonida yo'l-tkazgich barpo etish mo'ljallanmoqda. Loyihaga ko'ra 450 metrlik bu yo'l transport qatnovini alohida tashkil etish imkonini beradi, vokzal va Ichon qafa o'rtasida piyodalar xavfsiz harakatlanadi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni takomillashtirish, amaldagi ishlarining sifatini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Taqdimotda Toshkent shahrida investitsiya dasturlarining bajarilishi haqida ham axborot berildi. Qayd etilganidek, joriy yilning o'tgan davrida 2 milliard dollar qiymatidagi investitsiyalar o'zlashtirilgan. 200 ga yaqin sanoat loyihalari foydalanishga topshirilib, 25 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratilgan. Jumladan, Yangiyo'l tumanidagi texnoparkda 46 ta korxonalar tashkil etilmoqda.

Prezidentimiz yil yakunigacha mo'ljallangan loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish, energiya tejamoqlikka alohida ahamiyat qaratish zarurligini ta'kidladi.

O'ZA.

VOSIT VOHIDOV NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN XIRURGIYA MARKAZI JAMOASIGA

Qadri yurtdoshlar!

Avvalo, siz, azizlarni bugungi qutlug' sana – akademik Vosit Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilganining 50 yilligi bilan chin qalbidan samimiy muvofiqdoshlik bilan.

O'zbekistonda jarrohlik bo'yicha yetakchi va nufuzli muassasa hisoblangan ushbu Markaz ko'p millatli aholi jamosining fidokorona mehnati bilan mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida alohida o'rin egallab kelayotganini barchamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Bugungi quvonchli ayyomda Markazni tashkil etish, uning tibbiy salohiyatini oshirishda beqiyos xizmatlar qilgan tabarruk insonlar, xususan, xalqaro miqyosda tan olingan atqoli olim Vosit Vohidovning xotirasini hurmat-ehtirom bilan yodga olamiz. O'zbekiston tibbiyot ilmidagi yorqin iz qoldirgan ana shu fidoyi va jonkuyar insonning sa'y-harakatlari bilan Markaz faoliyati samarali yo'lga qo'yilib, yangi diagnostika va davolash usullari klinik amaliyotga birinchi marta bo'lib joriy etildi.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli hozirgi kunda Markaz faoliyati yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari bilan yaqin hamkorlikda ish olib borilmoqda. Tibbiy diagnostika va davolashning ilg'or va samarali usullari keng tatbiq etilmoqda.

Ayniqsa, so'nggi yillarda mazkur shifoxonada 200 dan ortiq yangi jarrohlik amaliyoti joriy etilib, qorin va ko'krak sohasi hamda yurak-qon tomir kasalliklari bo'yicha eng murakkab va yuqori texnologik operatsiyalar bajarilayotgani diqqatga sazovordir.

Bu haqda so'z yuritganda, yurtimizda

ilk bor shu maskanda yo'lga qo'yilgan tajriba asosida 1 ming 500 ta buyrak va jigar ko'chirib o'tkazish operatsiyasi, jumladan, tumanlarda 200 ta buyrak transplantatsiyasi amalga oshirilganini ta'kidlash lozim.

Hech shubhasiz, bunday natijalarga erishishda mamlakatimizda xirurgiya xizmatini isloh etish, hududlarda uning sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish, Markaz va uning filiallari moddiy-texnik bazasi hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlash borasidagi ishlar muhim omil bo'lmoqda.

Eng asosiy, og'ir xastaliklardan aziyat chekayotgan qancha-qancha yurtdoshlarimiz ko'p vaqt va mablag' evaziga xorijdagi klinikalarga borish azobidan qutulib, o'zimizda davo topmoqda.

Fursatdan foydalanib, o'z hayotini inson salomatligini saqlashdek g'oyat olijanob ishga bag'ishlagan Markazning butun jamoasiga – hurmatli professor va tadqiqotchilar, mohir jarroh va shifokorlar, jonkuyar hamshiralari, mutaxassis xodimlarga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Albatta, Markaz va uning mintaqaviy filiallari, tuman tibbiyot birlashmalarining xirurgiya bo'limlarini modernizatsiya qilish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sizlarning mashaqqatli mehnatingizni rag'batlantirish kelgusida ham doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Siz, azizlarni bugungi quvonchli ayyom bilan yana bir bor samimiy qutlab, barchangizga sihat-salamatlik, oilaviy baxt, sharafli va mas'uliyatli faoliyatingizda ulkan zafarlarni tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

AKADEMIK V.VOHIDOV NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN XIRURGIYA ILMYI-AMALIY TIBBIYOT MARKAZINING 50 YILLIGI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini xalqaro andozalar asosida rivojlantirish, aholi salomatligini ishonchli muhofaza qilish borasidagi ko'p yillik samarali mehnati, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni takomillashtirish, sohada zamonaviy davolash usullari va ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish, xususan, murakkab jarrohlik operatsiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini mustahkamlashga qo'shgan munosib hissasi, yuksak professional mahorat va malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashdagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlanadi:

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi" faxriy unvoni bilan

Ismailov Saydimurad Ibragimovich – Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori

II darajali "Salomatlik" ordeni bilan Gulamov Olimjon Mirzaxitovich – Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining torakoabdominal onkoxirurgiya bo'limi mudiri

Madgazyev Oleg Raxmatovich – Farg'ona viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazining torakoabdominal xirurgiya bo'limi shifokori

Xaybullina Zarina Ruslanovna – Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining klinik biokimyo va mikrobiologiya bo'limi mudiri

Xaydarov Alisher Erkinovich – Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining kardiopulmonologiya, kardioreanimsiya va sun'iy qon aylanish bo'limi mudiri

Yarbekov Rustam Raimkulovich – Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining yurak ishemik kasalliklari va uning asoratlari xirurgiyasi bo'limi mudiri, kardiolarrohi

"Do'stlik" ordeni bilan

Rustamova Frangis Kamranovna – Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining maslahat poliklinikasi bo'limi kichik tibbiy xodimi

Shuvayeva Olga Vladimirovna – Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining tibbiyot arxivi mudiri

"Sog'lom turmush" medali bilan

Djurayeva Nigora Muxsumovna – Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining magnit rezonans va kompyuter tomografiyasi bo'limi mudiri

Kadirov Marat Jalgasovich – U. Xalmuratov nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi ko'p tarmoqli tibbiyot markazining jarrohlik bo'limi shifokori

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 26-sentyabr

MDH Parlamentlararo Assambleyasi bilan konstruktiv aloqalar

Markaziy saylov komissiyasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari Kengashlari saylovlarini kuzatish maqsadida mamlakatimizga tashrif buyurgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Parlamentlararo Assambleyasi (MDH PA) vakillari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda MDH Parlamentlararo Assambleyasi Kengashi bosh kotibi maslahatchisi S. Karavayev hamda MDH PA ishtirokchilari davlatlarda demokratiyaning rivojlanishi, parlamentarizm va fuqarolarning saylov huquqlariga rioya etilishini monitoring qilish xalqaro instituti (DRMXI) eksperti S. Tkachenko ishtirok etdi.

Markaziy saylov komissiyasi Raisi Z. Nizomxo'jayev MDH Parlamentlararo Assambleyasi bilan konstruktiv hamkorlik yo'lga qo'yilganini ta'kidladi. MDH PA Markaziy saylov komissiyasining Hamdo'stlik mamlakatlari bo'yicha saylov sohasidagi hamkorlaridan biri bo'lishi bilan birga

so'nggi yillarda O'zbekistonda o'tkazilgan saylovlarni monitoring qilish va uning natijalari bo'yicha muhim tavsiyalar berishda ham faol qatnashib kelmoqda.

Qayd etib o'tilganidek, saylovning huquqiy asoslarini takomillashtirishda xalqaro tashkilotlar, saylovni kuzatish missiyalari, xususan, MDH PAning tavsiyalarini milliy qonunchiligimiz va amaliyotimizga tatbiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, uchrashuvda 27-oktyabr kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq

deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari saylovlari aralash saylov tizimi asosida o'tkazilishi hamda uning o'ziga xos xususiyatlari, milliy saylov amaliyotiga tatbiq etilgan yangiliklardan yana biri – "E-Saylov" axborot tizimi va mazkur tizimning afzalliklari yuzasidan batafsil ma'lumot berib o'tildi.

O'z navbatida, missiya vakillari bo'lajak saylovlarning umumiy tirof etilgan xalqaro demokratik tamoyillar asosida, yuqori tashkiliy darajada o'tishiga ishonch bildirdi.

"Xalq so'zi".

SAYLOV – 2024

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo'yicha saylov kampaniyasi doirasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti davom etmoqda. Bugungi sonda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi nomidan "Farovonlikka xizmat qiladigan dastur" sarlavhali maqola e'lon qilinmoqda.

3-sahifaga qarang.

Oliy Majlis Senatida

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish, eksportni qo'llab-quvvatlash — doimiy e'tiborda

Kecha Oliy Majlis Senati qo'mitalarining hamkorlikdagi majlisi bo'lib o'tdi.

Unda Andijon, Jizzax, Namangan va Xorazm viloyatlarida agrar hamda oziq-ovqat sohasini rivojlantirish, investitsiyalarni faol jalb etish hamda eksportni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar holati muhokama qilindi.

Majlisda Senat qo'mitalari raislari, senatorlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining doimiy komissiyalari hamda Yoshlar parlamenti a'zolari, ekspertlar, tegishli vazirlik va idoralar vakillari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Sohada olib borilayotgan ishlar yuzasidan mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlari hamda viloyat hokimi o'rinbosarlarining axboroti eshitildi.

Xususan, Andijon viloyatida joriy yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha qiymati 21,2 mln. dollar bo'lgan 23 ta loyiha shakllantirilib, bugungi kunda 6,9 mln. dollar bo'lgan 8 ta loyiha to'liq quvvatda ishga tushirilgan.

Jizzax viloyatida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun 76 ming gektar maydonga ekinlar ekilib, 10 trln. so'mlik mahsulot yetishtirilgan. G'alla va ertagi ekinlardan bo'shagan 83 ming gektar maydonga takroriy ekinlar ekilib, 28 mingga yaqin aholiga, jumladan, fermer xo'jaligi a'zolari, ijtimoiy daftarlarga kiritilgan va ishsiz yoshlarga ajratib berilgan.

Yil yakuniga qadar takroriy ekinlardan 945 ming tonna yoki 2,8 trln. so'mlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish rejalashtirilgan bo'lib, mahsulot ishlab chiqaruvchilarga 69 ta eksportyor-tadbirkor, qayta ishlash hamda tomorqa xizmati korxonalari birlashtirildi. Shuningdek, yetishtirilgan hosilni kafolatli xarid qilishning samarali tizimi yo'lga qo'yilgan.

Namangan viloyatida oziq-ovqat sanoati loyihalarini doirasida qiymati 11,4 mlrd. so'mlik 7 ta loyiha ishga tushirilgani natijasida joriy yilning yanvar – iyun oylarida 46,3 mln. dollarlik meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilingan.

Hududiy rivojlantirish dasturlari doirasida yil yakuniga qadar 201 ta investitsiya loyihasi ishga tushirilishi belgilangan bo'lib, o'tgan yarim yillikda qiymati 164 mlrd. so'mlik 60 ta yangi loyiha ishga tushirilgan hamda mingga yaqin ish o'rinlari yaratilgan.

Xorazm viloyatida agrar va oziq-ovqat sohasida qiymati 1,7 trln. so'mlik 156 ta loyihani ishga tushirish va 2,6 mingga ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. O'tgan yarim yillikda qiymati 237 mlrd. so'mlik 85 ta loyiha moliyalashtirilib, 760 dan ortiq ish o'rinlari ochilgan.

Majlisda amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda, o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi ham ta'kidlandi.

Xususan, joriy yilda respublikada xalqaro moliya institutlarining mablag'lari hisobidan qiymati 95,5 mln. dollarlik oziq-ovqat sanoati loyihalarini shakllantirilgan bo'lsa-da, bugungi kunda bu mablag'ning atigi 14,6 foizi o'zlashtirilgan.

Hududlarda investitsiya dasturlari doirasida ishga tushirilishi belgilangan qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat sanoati loyihalarini to'liq amalga oshirilmagan. Jumladan, rejaiga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Asaka, Qo'rg'on, Baxmal, Gurlan, Yangibozor, Yangiqo'rg'on, Uychi, Davlat-obod tumanlarida qayd etilgan.

Senatorlar tomonidan kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan qishloq xo'jaligi yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladigan loyihalarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, kreditlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi past hududlar bo'yicha zarur choralar ko'rish yuzasidan vazirlik va idoralarga ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasida ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligi va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati muhokama etildi.

Majlis yakunida tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Uchrashuv

Yoshlarimizda daxldorlik hissini oshirish muhim

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov Ichki ishlar Akademiyasida ta'lim muassasasining rahbar-xodimlari, professor-o'qituvchilari, magistratura bosqichida ta'lim olayotgan mutaxassislar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'z bordi.

Xususan, jamiyat hayotining barcha jabhasida o'zgarishlar ro'y berayotgani, xalqimiz ongida yangicha dunyoqarash shakllanayotgani va ularda bo'layotgan yangilanishlarga daxldorlik hissi tobora ortib borayotgani qayd etildi.

O'z navbatida, yurtimiz hayotida tub burilish yasagan

konstitutsiyaviy islohotlar, yangilangan Konstitutsiyamizdagi ustuvor tamoyillar mazmun-mohiyati va pirovard maqsadi, qonun ijodkorligi sohasidagi yangiliklar haqida ham fikr almashildi.

Qolaversa, bu islohotlarga yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning daxldorlik hissini yanada mustahkamlash maqsadida ta'lim va tarbiyaga katta e'tibor qaratish kerakligi ham urg'ulandi.

"Mahalla yettiligi" faoliyati o'rganildi

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Tolibjon Madumarov hamda Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasida doimiy asosda ishlovchi senator Mahmudjon Parpiyev Namangan viloyatida "mahalla yettiligi" faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Dashtab, ular viloyatning "Bo'zo'lmas" mahalla fuqarolar yig'iniga tashrif buyurib, hududdagi yangilanishlar bilan tanishdi.

Mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, mahalla oqsoqollari bilan suhbat asnosida Prezidentimiz tomonidan yaratib berilgan qulaylik va o'zgarishlarni aholi o'z hayotida his qilishi zarurligi alohida ta'kidlandi.

Shu bilan birga, senatorlar hududlarda aholi bandligini ta'minlash, ularning daromad manbaini shakllantirish hamda turmush farovonligini yaxshilashga yo'naltirilgan

"Murojaatdan – daromadga" loyihasi doirasida tashkil etilgan tadbirda qatnashdi.

Unda tuman Xalq qabulxonasiga qilingan murojaatlar asosida aholiga 13 ta tikuv mashinasi, maishiy texnikalar hamda 1 ta go'zallik saloni uchun jihozlar topshirildi.

Senatorlar tuman mahallalarida ro'yobga chiqarilayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida Sirmoq mahallasida ham bo'ldi. Bu yerda "mahalla yettiligi" faoliyati bilan tanishildi va amalga oshirilayotgan ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar xususida aholi bilan muloqot bo'lib o'tdi.

"Xalq so'zi".

Seminar

Bolalarga nafaqa va moddiy yordam to'lash mezonlarini takomillashtirish zarur

Oliy Majlis Senatida bo'lib o'tgan "Kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordam to'lash mezonlarini va manzilligini takomillashtirish" mavzuidagi seminar ayni shu masala tahlil qilindi.

Unda senatorlar, vazirlik va idoralar mutasaddilari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Seminarida kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordam to'lash mexanizmi hamda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida bolalar nafaqalari va moddiy yordam to'lash bo'yicha tashkil etilgan "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi qulayliklari, shuningdek, ushbu yo'nalishda mavjud muammo va kamchiliklar yuzasidan fikr almashildi.

Aytilganidek, tizimga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish orqali inson omilini bartaraf etish

maqsadida va xorijiy kompaniyani yollagan holda "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi ishlab chiqildi. U 2019-yilda Sirdaryo viloyatida sinovdan o'tkazilib, 2020-yil yakuniga qadar bosqichma-bosqich respublikaning barcha hududiga joriy qilindi.

Bugungi kunda nafaqa tayinlash yoki rad etish jarayonida inson omili to'liq bartaraf qilinib, "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimiga 16 ta vazirlik va idoraning axborot tizimlaridan 56 tirdagi ma'lumotlar elektron tarzda olinmoqda.

Tadbirda so'nggi besh yilda mamlakatimizda ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar soni 5,1 barobar oshgani va hozirda 1,2 millondan ortiq oilalarga yiliga 10,3 trillion

so'm nafaqa to'lab kelinayotgani ta'kidlandi.

2021-yilga qadar ijtimoiy nafaqalar fuqarolarning mahalla raislari boshchiligidagi komissiya tomonidan tayinlab kelingani, har bir mahallada nafaqa to'lanadigan oilalar soniga limitlar belgilangani oila holatini subyektiv baholashga, ayrim hollarda esa korrupsiya holatlarga sabab bo'lgani ham aytib o'tildi.

Seminarida "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimini yanada takomillashtirish, bunda kam ta'minlangan oilalar ijtimoiy holatini shaffof baholash mexanizmini ishlab chiqish zarurligiga alohida urg'u berildi.

Senatorlar tomonidan axborot tizimini takomillashtirish hamda kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam to'lash yuzasidan zarur taklif va tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".

Anjuman

KALQARO MULOQOT MAYDONIGA AYLANGAN SAMMIT

25-26-sentyabr kunlari Samarqand shahrida Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashining IX yillik yig'ilishi bo'lib o'tdi. Sammitda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tashkilotlar rahbarlari, 100 dan ortiq mamlakatlardan yuqori darajali delegatsiyalar, yetakchi xorijiy kompaniyalarning boshqaruvchilari va nufuzli ekspertlar ishtirok etdi.

"Barcha uchun barqaror infratuzilma yaratish" mavzuida o'tkazilgan yig'ilish doirasida ikki kun davomida global iqtisodiyot va moliya sohasidagi dolzarb masalalar, Osiyo va dunyoning boshqa mintaqalarida infratuzilmani rivojlantirishning strategik dastur va rejalar muhokama qilindi. Moliyalashtirishdagi innovatsiyalar, iqlim o'zgarishiga moslashuv va barqaror rivojlanish hamda infratuzilma loyihalarining raqamli transformatsiyasiga bag'ishlangan 25 dan ortiq panel muhokamalari bo'lib o'tdi. Shuningdek, OIIB Boshqaruvchilari ishtirokidagi davra suhbat, Boshqaruvchilar kengashining rasmiy sessiyasi, jamoatchilik hamda fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikka oid qator tadbirlar o'tkazildi.

Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashining IX yillik yig'ilishi ishtirokchilari, hamkor institutlar, biznes yetakchilari, fuqarolik jamiyati vakillari va turli soha ekspertlari bilan yaqindan hamkorlik qilish uchun muhim platforma vazifasini o'tadi.

26-sentyabr kuni Samarqand sammiti doirasida panel sessiyalar hamda resurslarni safarbar qilish bo'yicha xalqaro forum bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Kudratov so'zga chiqib, OIIB yillik yig'ilishining Buyuk Ipak yo'lida muhim o'rinni egallagan, tarixan Sharq va G'arb, Shimol va Janubni bog'lovchi bog'in bo'lib xizmat qilgan Samarqandda o'tkazilishida ramziy ma'no borligini ta'kidladi.

Vazir 2030-yilga borib iqtisodiyotning 85 foizi xususiy sektor tomonidan yaratilishiga

erishish, energiyaning 40 foizi qayta tiklanadigan manbalar hisobidan ishlab chiqarilishini ta'minlash hamda o'rtadan yuqori daromadli mamlakat maqomiga ega bo'lish kabi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi maqsadlarini qayd etdi. Mehnat natijadorligini ikki barobar oshirish, eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazish bo'yicha ishlar olib borilayotganiga ham to'xtaldi.

Yig'ilishda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki rahbari Szin Lisyun, Jahon banki guruhi boshqaruvchi direktori va bosh ma'muriy direktori Venkay Chjan, yirik xalqaro investorlar va ekspertlar so'zga chiqdi.

Tadbirning "Resurslarni safarbar qilish bo'yicha xalqaro forum" deb nomlangan ikkinchi qismi xalqaro donorlar va investitsiya fondlari bilan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarining amaliy jihatlarni muhokama qilishga bag'ishlandi. Xalqaro ekspertlar, nufuzli moliya muassasalari hamda mamlakatimiz hamkorlarining O'zbekistonda sarmoyaviy sheriklikni rivojlantirish va loyihalarni amalga oshirishning eng istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha fikr-mulohazalari tinglandi.

Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining Samarqand sammiti – yangi O'zbekiston muhim global va mintaqaviy masalalarni muhokama qilish, ularga samarali yechimlar topish uchun xalqaro muloqot maydoniga aylanib borayotganining yorqin namunasi bo'ldi.

Abdulaziz YO'LDOshev ("Xalq so'zi").

Besh yillik faoliyat:

INSON SALOMATLIGIGA QONUNIY KAFOLAT

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, odamlarda tibbiy savodxonlikni yuksaltirish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan sanaladi. Ayniqsa, bugungi kunda ushbu sohani sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, uning huquqiy bazasini mustahkamlashga qaratilgan ko'lamli islohotlar fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratmoqda.

Tahlil

Shu nuqtaiy nazardan aytganda, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida tuzilgan Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi 2020 – 2024-yillar davomidagi faoliyatida aholi salomatligini mustahkamlash va tibbiyot tizimini rivojlantirish, bu boradagi sa'y-harakatlar, chora-tadbirlarni yanada chuqurlashtirish hamda huquqiy jihatdan ta'minlashga alohida ahamiyat qaratdi.



Qo'mita qonun ijodkorligi yo'nalishida 16 ta qonun loyihasi uchun mas'ul bo'ldi va ularning barchasi qabul qilindi. Jumladan, qo'mita mas'ulligida yosh avlodning sog'lig'i hamda kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi dori vositalarining notibbiy maqsadlarda qo'llanilishining oldini olish maqsadida Jinoyat hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga kuchli ta'sir etuvchi dori vositalarini retseptsiz berilgani va berish tartibini buzganlik uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlikni ko'zda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Shu bilan birga, kam uchraydigan (orfan) kasalliklar tashxisi va ularni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari hamda tibbiy buyumlarni, epidemiologik holatlar yuzaga kelganda esa xavfli yuqumli kasalliklarni profilaktika qilish, tashxislash va davolash uchun zarur bo'ladigan dori vositalari hamda tibbiy buyumlarni mamlakatimizda davlat ro'yxatidan o'tkazmasdan, Sog'liqni saqlash vazirining buyurtmasi asosida olib kirilishiga ruxsat berish maqsadida "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunga tegishli o'zgartirish

va qo'shimchalar kiritildi. Pandemiya paytida mazkur Qonun fuqarolarimiz hayoti va sog'lig'ini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bilamizki, butun dunyoda inson a'zolari va to'qimalari donorigi hamda ularni ko'chirib o'tkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yurtimizda bu boradagi qonunchilik asoslarini mustahkamlash maqsadida "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Qo'mita mazkur qonun loyihasini maromiga yetkazish jarayonida Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari, quyi palata hududidagi Parlament tadqiqotlari instituti hamda bir qator tibbiyot markazlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston musulmonlar idorasi va boshqa idora hamda tashkilotlarning taklif va mulohazalarini inobatga oldi. Mazkur Qonun yurtimizda inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasini qayta yo'lga qo'yish hamda rivojlantirish

orqali fuqarolarimizning sog'lig'i va hayotini saqlab qolishga xizmat qilmoqda.

Yana bir ahamiyatli jihat, mamlakatimizda psixiatriya yordamining barcha yo'nalishi bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, jumladan, ixtiyoriy va majburiy psixiatriya yordamini ko'rsatish, sohada manfaatdor vazirlik va idoralarning hamkorligini ta'minlash, fuqarolarga psixiatriya yordamini ko'rsatishda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, psixiatriya yordami ko'rsatishda tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislarining himoyasini ta'minlash maqsadida "Psixiatriya yordami to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Shu bilan birga, "Alkohol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi Qonun ham qo'mita mas'ulligida qabul qilindi. Bu bilan alkohol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklashga doir faoliyatni tartibga solish mexanizmlari takomillashtirildi.


Sir emaski, keyingi paytlarda bemorlar va ularning yaqin qarindoshlari tomonidan tibbiyot xodimlarini bemorning sog'lig'i yomonlashishi yoki o'limida asossiz ravishda ayblash, shuningdek, hech bir sababsiz shifokorlarga va o'rta tibbiyot xodimlariga tajovuz qilish holatlari yuz bermoqda. Shuning uchun "Tibbiyot xodimining qonuniy tibbiy faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonun qabul qilindi. Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks tibbiyot xodimining qonuniy tibbiy faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlikni belgilovchi yangi modda bilan to'ldirildi.

Shu o'rinda, o'tgan besh yil davomida qo'mitamiz a'zolari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqidan ham samarali foydalanilganini alohida qayd etish joiz. Jumladan, "Sanitariya-epidemiologiya xizmati takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi, "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi, xalq tabobati sohasidagi faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan aholiga xizmat ko'rsatish,

boshqaruvi organlari zimmasidagi muhim masalalarning o'z vaqtida ijro etilish holatini o'rganish va ularning yakunlari bo'yicha mas'ullarning axborotini qo'mita yig'ilishida eshitib borishga alohida e'tibor qaratdi.

Xususan, o'tgan davrda qo'mita tomonidan nazorat-tahlil faoliyati doirasida 63 ta tadbir o'tkazildi. Ulardan 20 tasi davlat organi rahbarining axborotini eshitish, 32 tasi qonun hujjatlarining ijro etilish holatini o'rganish, 11 tasi Oliy Majlis palatalari qarorlarining ijrosini monitoring

Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi 2020 — 2024 yillar davomidagi faoliyatida:



Shu bilan birga, mansabdor shaxslarga saylovchilarning konuniy xujuk va manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalar yuzasidan jami 82 ta deputat s'urovi yuborildi.

shuningdek, xizmatlarni xalq tabobati yo'nalishida ruxsat etilgan usullarni qo'llagan holda ko'rsatish holatlarini oldini olish orqali fuqarolar sog'lig'i saqlanishini ta'minlashga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqildi hamda qabul qilindi. Bundan tashqari, qo'mita o'z faoliyati davomida parlament nazoratining ta'sirchan mexanizmlaridan samarali foydalangan holda, joylardagi tizimli muammolarni hal etish, davlat va xo'jalik

qilishga taalluqlidir. Jumladan, palata majlisida Sog'liqni saqlash vazirining "Mamlakatimizda aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning holati va istiqbol to'g'risida"gi, "Mamlakatimizda bolalar va o'smirlar orasidagi kasalliklar profilaktikasi hamda ularni davolash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati, shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi istiqbol rejalar to'g'risida"gi axborotlari eshitildi. Qiyoslash uchun aytadigan bo'lsak, 2015 – 2019-yillarda qo'mita tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish va qonun hujjatlarining

ijro etilishi holatini o'rganishga doir 29 ta nazorat-tahlil tadbiri o'tkazilgan.

Shuningdek, nazorat-tahlil tadbirlari hamda o'rganishlar yakunidan kelib chiqib, qo'mita tashabbusi bilan davlat organlarining mansabdor shaxslariga 5 ta parlament so'rovi yuborildi. Bundan tashqari, qo'mita a'zolari tomonidan mansabdor shaxslarga saylovchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalar yuzasidan jami 82 ta deputat so'rovi yuborildi. Tahlil etadigan bo'lsak, 2015 – 2019-yillarda 32 ta deputat so'rovi yuborilgan.

Ayonki, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash joylardagi mavjud muammolarni bartaraf etishda muhim omil sanaladi. Shu bois qo'mita a'zolari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida o'rganish hamda ularni hal qilishga alohida e'tibor qaratdi. Chunonchi, o'tgan davrda 2 145 ta murojaat belgilangan tartibda ko'rib chiqildi. Ulardan 973 tasiga ijobiy yechim topildi, qolganlari bo'yicha huquqiy tushuntirishlar berildi. Ushbu ko'rsatkichni qiyoslaydigan bo'lsak, 2015 – 2019-yillarda qo'mita tomonidan 889 ta murojaat ko'rib chiqilgan edi.

O'tgan davrda qo'mitamiz faoliyati sarmahsul, samarali bo'ldi. Chunki deputatlarimiz har bir masalaga yuksak mas'uliyat va daxldorlik hissi bilan yondashdi. Bu, o'z navbatida, qabul qilingan hujjatlarimizda chuqur aks etdi va fuqarolarni qiyab kelayotgan masalalarga huquqiy yechim bo'ldi. Maqsadimiz mamlakatimiz yanada gullab-yashnashi, ravnaq topishiga erishish ekan, bunda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, qabul qilinayotgan qonunlar mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Yelena BORISOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi raisi.

FAROVONLIKKA XIZMAT QILADIGAN DASTUR

Xalq demokratik partiyasining Saylovoldi dasturi haqida

O'zbekiston

XDP

Xalq demokratik partiyasi

Bugun dunyo miqyosida bir tendensiya qaror topmoqda. Bu ijtimoiy siyosat har bir davlat rivojlanishi va boshqaruvining, ta'bir joiz bo'lsa, tayanch ustuniga aylanayotganidir. Darhaqiqat, jamiyatdagi turli shaxslar hamda guruhlar o'rtasidagi tenglikni tartibga solishda, ijtimoiy adolat va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda uning o'rni beqiyos.

Ijtimoiy adolat hukmron bo'lgan davlat barpo etishni o'zining eng oliy maqsadi, deb bilgan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan g'oya va tashabbuslar aynan shu maqsadga qaratilgan.

Saylovoldi dasturimizda partiyaning siyosiy maydondagi so'z pozitsiyasiga xos va mos ravishda ijtimoiy-demokratik g'oyalarni ifodalovchi vazifalarga alohida ustuvorlik berilgan.

Bu yilgi Saylovoldi dasturimizdan 10 ta yo'nalishda 15 ta strategik qadamdan iborat ustuvor maqsadlar o'radan olgan.

Birinchiligi yo'nalishi. Ijtimoiy barqarorlikning tayanchi bo'lgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga intilamiz!

Ushbu yo'nalishda har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratish, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish, kambag'allikni qisqartirish, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai bilan ta'minlash bo'yicha samarali siyosatni amalga oshirishni maqsad qilganmiz. Shu bois davlat aholi manfaatlarini to'laqonli ta'minlash maqsadida kuchli ijtimoiy siyosat yuritishi lozim, deb hisoblaymiz.

Mazkur yo'nalishdagi tashabbuslar 3 ta strategik qadamda o'z ifodasini topadi.

1-qadam. Har bir shaxsning Konstitutsiya bilan kafolatlangan ijtimoiy huquqlarining adolati va samarali amalga oshirilishini ta'minlash.

Avvalo, parlamentdagi fraksiyamiz ijtimoiy ta'minot va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlarini yangi normalar bilan to'ldirish orqali ijtimoiy kodeksni qabul qilishni maqsad qilgan.

Davlat o'z fuqarolari uchun g'amxo'rlik qilishi kerak. Shu maqsadda imtiyozga ega bo'lgan fuqarolardan tashqari boshqa og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolar toifalarini va ularga ko'rsatiladigan yordam turlarini qonunchilikda aniq belgilash lozim. Davlat unga g'amxo'r ekanligini anglagan fuqaro davlatdan rozi, zarur bo'lsa, unga fidoyilik ko'rsatishga ham tayyor bo'ladi. Bu davlat va fuqaro o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

Shuningdek, birinchi qadamda har bir insonning birlamchi hayotiy ehtiyojlariga yetadigan eng kam iste'mol xarajatlarini qonun darajasida belgilash maqsadida "Eng kam iste'mol xarajatlarini belgilash tartibi to'g'risida"gi qonunni qabul qilish nazarda tutilgan.

2-qadamda nogironligi bo'lgan shaxslarning talab va ehtiyojlarini, qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash masalasi o'rin olgan.

Buning uchun milliy qonunchilikni BMTning Nogironlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha standart qoidalarga to'liq muvofiqlashtirishga erishmoqchimiz.

Jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun obyektlar va xizmatlarning qulayligi bo'yicha milliy standartlarni ishlab chiqish hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunni alohida qismida qonun darajasida mustahkamlash belgilangan. Qolaversa, temir yo'l vokzallari, aeroport va shohbektalarga ko'zi ojizlar uchun elektron axborot eshish moslamalarini, svetofor va maxsus yo'laklarda nogironligi bo'lgan shaxslarni oqohlantiruvchi ovozi elektron jihazlarni o'rnatish ham maqsad qilingan.

3-qadamda davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish nazarda tutilgan.

Mazkur yo'nalishda bir qator hayotiy zaruratga aylanib borayotgan tashabbuslar o'rin olgan. Bunda ayollarga pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga

bolasi 3 yoshga to'lguncha uni parvarishlash ta'tillarida bo'lish vaqtini to'liq qo'shib hisoblash kerak, deb bilamiz.

Er yoki xotini vafot etgan hamda vafot etgan shaxs ko'proq pensiya olgan taqdirda, ushbu pensiyani uning hayot bo'lgan turmush o'rtog'iga o'tkazib berish (pensiyaning almashtirish) tartibini joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Biz fuqarolarning jam'arib borilayotgan pensiya mablag'larini boshqarish, ularni doimiy ravishda onlayn tarzda kuzatish, bankka depozitga qo'yish orqali ko'paytirib borish imkoniyatini berish kerak, deb hisoblaymiz. Jam'arib borilayotgan mablag'larni boshqarish tizimini yo'lga

solish to'g'risida"gi qonunni qabul qilishni rejalashtirdik.

Ushbu qonun bilan kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj toifadagi fuqarolar uchun subsidiyalar yoki imtiyozlar mexanizmlarini yaratish imkoniyati biz uchun muhimdir.

Bundan tashqari, fuqaro kommunal xizmatlardan asossiz yoki ta'minotchining aybi bilan uzilgan taqdirda ta'minotchi tomonidan fuqaroga kompensatsiya to'lash tizimini joriy etish kabi tashabbuslar o'rin olgan.

Saylovoldi dasturining **uchinchi yo'nalishi** shaharlar va aholi yashash punktlarining xavfsizligi va

Tibbiyot sohasida sug'urta tizimining to'liq yo'lga qo'yilishi sohaga ajratilayotgan mablag'lar doirasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ulushi, aholining ijtimoiy zaif toifalari vakillarining sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga, bu borada ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, keksalar va onkologik kasallar uchun sifatli xizmat ko'rsatishning yuqori standartlarini ta'minlashga qaratilgan xospis tizimini rivojlantirish va "Xospis xizmatini ko'rsatish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqish kabi tashabbuslar ilgari surilmoqda.

8-qadamda farmatsevtika sohasida davlat nazoratini kuchaytirish, dori-

ИЖТИМОЙ Dablam УЧУН!

qo'yish va unda bevosita pensionerning o'zi ishtirok etishi zarurdir.

Bundan tashqari, pensiyaga chiqib, kamida besh yil ishlab, daromad solig'i va ijtimoiy soliqni to'lagan pensionerlar uchun muqaddam tayinlangan pensiyani qayta hisoblab, oshirilgan miqdorda tayinlash imkoniyatini berish va pensiya yoshini o'zgartirmasdan saqlab qolish bo'yicha yuritilayotgan siyosatni davom ettirish zarurdir.

Ikkinchi yo'nalishi aholining arzon uy-joy va sifatli kommunal xizmatlarini ta'minlash bilan bog'liq tashabbuslar o'rin olgan.

Bunda XDP fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan har kimgin uy-joyli bo'lish huquqini ta'minlash, buning uchun arzon uy-joy qurilishini kengaytirishga qat'iy harakat qiladi.

Mazkur yo'nalishdagi tashabbuslar ikkita qadamda o'z ifodasini topadi. Xususan, 4-qadamda aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash hamda qurilish sohasida samarali nazorat o'rnatish ko'zda tutilgan.

Biz "Ijtimoiy turarjoylar to'g'risida"gi qonunni qabul qilishni maqsad qilganmiz. Unda uy-joysiz, yashash sharoiti o'ta og'ir, nogironligi bo'lgan yoki oila a'zolari orasida nogironligi mavjud ayollar, oilaviy bolalar uylari bitiruvchilari uchun ijtimoiy turarjoylar qurish nazarda tutiladi.

5-qadamda yuqoridagi tashabbuslarning mantiqiy davomi sifatida aholiga sifatli kommunal xizmat ko'rsatish darajasini oshirishga urg'u qaratilgan.

Kommunal xizmatlarning sifatli va o'z vaqtida bo'lishi aholi hayot tarzini osonlashtiradi. Biz kommunal xizmatlar va uy-joy fondidan foydalanish bo'yicha xizmatlar narxi va tariflarni belgilashni tartibga solish maqsadida "Kommunal xizmatlar narxlarini va tariflarni tartibga

ekologik barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Bunda partiya shaharlar va aholi punktlarining tarixiy qiyofasini saqlash, tabiiy resurslarini muhofaza qilish bo'yicha o'z sa'y-harakatlarini kuchaytirishni maqsad qilgan.

6-qadamda O'zbekistonni xavfsiz va ekologik barqaror hududga aylantirish yo'lidagi tashabbuslar o'rin olgan.

Partiya mazkur qadamda davlat yaylov xo'jaliklari tizimini yo'lga qo'yish, ularga nisbatan davlat o'rmon xo'jaliklariga qo'llaniladigan yer va soliq imtiyozlarini qo'llash, bunda ushbu imtiyozlar hisobidan iqtisod qilinadigan mablag'larni yaylovlarini tiklash, degradatsiyadan chiqarish, yaylov o'simliklari urug'chiligi maydonlarini kengaytirish tadbirlariga sarflash masalalariga e'tibor qaratgan.

Ushbu yo'nalishda mahalliy Kengashlardagi partiya guruhlarimiz bilan birgalikda shahar hududlarida yomg'ir suvlari tashabbusini o'ldini olish maqsadida drenaj tizimini qayta ko'rib chiqish, elektr jamoat transport vositalari ulushini ko'paytirish, bepul elektr quvvatlash stansiyalarini tashkil etish uchun faol ish olib borishni maqsad qilganmiz.

Saylovoldi dasturimizning **to'rtinchi yo'nalishi**da barcha uchun malakali tibbiy xizmat imkoniyatlarini yaratish bo'yicha tashabbuslar o'rin olgan. Xususan, shu yo'nalishdan o'rin olgan 7-qadamda malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan.

Partiyamiz tibbiy sug'urtani joriy etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida "Davlat tibbiy sug'urta to'g'risida"gi qonunni qabul qilish zarur, deb hisoblaydi.

darmon va protezlash vositalari hamda boshqa tibbiy-ijtimoiy xizmatlar narxlarini tartibga solishga qaratilgan g'oyalarni mujassamlashtirgan.

Biz bunda dori va tibbiy buyumlarning narxlarini bo'yicha cheklovlarini belgilash yuzasidan "Dori-darmonlar va tibbiy vositalar narxlarini davlat tomonidan tartibga solish to'g'risida"gi qonunni qabul qilish muhimligiga e'tibor qaratganmiz. Ishonamizki, dori-darmon va tibbiy vositalarning narxlarini davlat tomonidan tartibga solinishi aholini ortiqcha tashvishlardan xalos etadi.

Mazkur qadamda biz zamonaviy tibbiyot va xalq tabobatini qo'shgan holda davolash standartlari (protokollari)ni joriy etish orqali doriga qaramlikni kamaytirish tashabbusini ham ilgari suramiz.

Dasturimizdagi 9-qadam sport va madaniyatni qo'llab-quvvatlash va ommalashtirishga qaratilgan.

Partiyamiz aholini sportga ommaviy jalb qilishni sog'liqni saqlash tizimining muhim qismi, deb hisoblaydi. Lekin jamiyatda hamma ham professional sportchi bo'lib ketavermaydi. Har qanday kasb egasi istagana vaqtda sport bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratilishi kerak. Bu yo'lida biz "workout" tizimini ommalashtirish aholining sport bilan bepul shug'ullanishlari uchun ajoyib yechim, deb hisoblaymiz.

Saylovoldi dasturining **beshinchi yo'nalishi** yoshlarning sifatli ta'lim olishiga qaratilgan.

Qayd etish kerak, yoshlarga sifatli ta'lim berilishi mamlakat intellektual salohiyatini yuksaltirish kafolatidir!

Biz 10-qadamda fuqarolar barcha ta'lim muassalarida sifatli maktabgacha, o'rta, oliy ta'lim, shuningdek, kasbiy ta'lim olishi, malakasini oshirishi uchun teng imkoniyatlar yaratishga erishmoqchimiz.

Birinchi navbatda, "Yagona ijtimoiy

reestr"da ro'yxatga olingan oila farzandlarini davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'lanadigan to'lovdan ozod qilishni nazarda tutaymiz.

Maktablarda ovqatlanirish tizimi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, zararli oziq-ovqat mahsulotlarini sotishning oldini olish va boshlang'ich sinflarda o'quvchilar sonini 20 nafardan oshirmaslik, katta sinflarda esa 24 tagacha o'quvchi o'qitish tizimini yaratish zarurdir.

Biz maktablar o'quv dasturlarida chet tillar va IT bo'yicha o'quv soatlarini keskin ko'paytirish kerak, deb hisoblaymiz.

Dasturimizning **oltinchi yo'nalishi** ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti - kuchli ijtimoiy siyosatning asosidir, deb nomlanadi.

Undagi 11-qadamda iqtisodiyotda davlatning faol roli va ishtirokini saqlab qolish, kambag'allikni qisqartirish, soliq qonunchiligini takomillashtirish hamda bank-kredit sohasini rivojlantirish bo'yicha takliflar o'rin olgan.

Partiyamiz strategik ahamiyatga ega kompaniyalar ustidan davlat nazoratini saqlab qolish, ularni xususiy lashtirishni qonun darajasida taqiqlash zarurdir. Bunga sabab energetika, transport va mudofaa sanoati kabi strategik muhim sohalarda milliy xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Dasturimizda vazirlik va idoralar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish yoki jarima solish natijasida tushadigan barcha tushumlarni to'lig'icha Davlat byudjetiga yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Dasturimizdagi **yettinchi yo'nalish** tovar va xizmatlar narxlarining ijtimoiy maqbulligini ta'minlash - manzilli ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishi, deb nomlanadi. Partiyamiz ijtimoiy ahamiyatga ega tovar va xizmatlarning narxlarini shakllantirish ustidan davlat va jamoatchilik nazoratini qat'iy o'rnatish lozim, deb hisoblaydi.

12-qadamda ehtiyojmand aholi qatlamining kundalik zarur tovar va xizmatlardan foydalanishini ta'minlash masalasiga e'tibor qaratilgan.

Kam ta'minlangan aholi qatlami uchun kundalik zarur tovar va mahsulotlarni arzon narxlarda sotish bo'yicha ijtimoiy do'konlar tarmog'ini rivojlantirishni ko'zda tutaymiz.

Partiyamiz ipoteka krediti to'lovi bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelganligi sababli garovga qo'yilgan ko'chmas mulkni auktsionda sotishdan oldin kredit olgan shaxs uchun o'z muddatda ushbu ko'chmas mulkni uch tomonlama oldi-sotdi shartnomasi asosida o'ziga qulay narxda sotish imkonini berish kerak, deb hisoblaydi.

Saylovoldi dasturining **sakkizinchi yo'nalishi**ni to'liq qamrab olgan 13-qadamda partiya ochiq, shaffof, xalqchil va demokratik davlat boshqaruvi tizimini joriy etish zarurdir.

Unda parlamentdagi fraksiyamiz aholining ijtimoiy kamyofiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarning majburiy jamoatchilik muhokamasi va ekspertizasi mexanizmini yaratishni ko'zlagani aytilgan.

Partiya ushbu yo'nalishda "Mening fikrim" platformasini takomillashtirish orqali

Xalq demokratik partiyasining Saylovoldi dasturi bilan tanishgan har bir saylovchi uning keng aholi qatlami vakillari manfaatlarini aks ettirgani, g'oya va tashabbuslar tom ma'noda vaqt sinovidan o'tgan chuqur asosga egaligi, partiyaning pirovard maqsadi xalqimiz turmush farovonligini ta'minlash ekanligiga to'liq amin bo'ladi.

Xalq demokratik partiyasi va deputatlikka nomzodlariga ovoz bering!

fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, partiya davlat boshqaruvi yuqori professionalizmini ta'minlash maqsadida qonun darajasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbari lavozimiga faqatgina shu sohada kamida o'n yillik ish stajiga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni tavsiya etish bo'yicha talabni belgilash uchun harakat qiladi.

Ijro hokimiyati tomonidan muhim ijtimoiy qarorlar qabul qilishda siyosiy partiyalar fraksiyalari va joylardagi partiya guruhlari bilan maslahatlashuvlar o'tkazish institutini joriy etish, davlatning ayrim funksiyalarini bosqichma-bosqich fuqarolik jamiyati institutlariga o'tkazish, siyosiy partiyalar, deputatlik birlashmalari huquq va vakolatlarini yanada kengaytirish kabi takliflar ham ushbu yo'nalishda o'z ifodasini topgan.

Dasturimizning **to'qqizinchi yo'nalishi**da qonun ustuvorligi, ijtimoiy tenglik va inson huquqlarini ta'minlash, fuqarolar hamjihatligi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha vazifalar aks etgan.

Partiyamiz qonun ustuvorligini yanada mustahkamlash asosida fuqarolarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha sud mexanizmlarining maqbulligini ta'minlash uchun qat'iy harakat qiladi. Jumladan, 14-qadamda sud mexanizmlarining maqbulligini ta'minlash, qonun ustuvorligini yanada mustahkamlash, huquqlar, majburiyatlar va imkoniyatlar tengligiga qat'iy amal qilishga qaratilgan tashabbuslar o'rin olgan.

Biz bu yo'nalishda birinchi qalda odil sudlovni amalga oshirishda xalq maslahatchilari o'rniga hakamlar hay'ati institutini joriy qilish kerak, deb hisoblaymiz. Mazkur institutning joriy etilishi demokratik tamoyillarni mustahkamlashga, sud jarayonlarining xolisligi va adolatliligini oshirishga, korruptsiya xavfini kamaytirishga va fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, sohaviy nazorat organlari (inspeksiya)ning mustaqilligi va maqomini kuchaytirish, ularga respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining ta'sirini kamaytirishni maqsad qilganmiz. Bu tashabbus davlat nazorati xolisligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi.

Bundan tashqari, ushbu qadamdan Davlat byudjeti hisobidan qimmatbaho sovg'alar hadya qilishni taqiqlash, Davlat byudjeti mablag'larini samarasiz hamda maqsadsiz ishlatganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish va yana boshqa ko'plab tashabbuslar o'rin olgan.

Dasturdagi so'nggi, **o'ninchi yo'nalish**da milliy manfaatlariga asoslangan ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosatni izchil davom ettirish bilan bog'liq g'oyalarni mujassamlashtirgan.

Undagi 15-qadamda O'zbekistonning xalqaro mavqeiini mustahkamlash, o'zaro manfaatdorlik va teng huquqlilik asosida hamkorlik va sheriklikni faol rivojlantirish nazarda tutilgan.

Xususan, mintaqaviy barqaror ijtimoiy rivojlanish, muqobil energetika va zamonaviy tibbiyot sohasida innovatsion dasturlar hamda loyihalarni xalqaro hamkorlar bilan birgalikda amalga oshirishni maqsad qilingan.

Firdavs SHARIPOV,

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari.

QISQA
SATRLARDAAjiniyoz hayoti va
ijodiga bag'ishlangan
ko'rgazma

O'zbekiston Badiiy akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zalida atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li tavalludining 200-yilligi, hayoti hamda ijodiga bag'ishlangan kitoblar, tasviriy san'at asarlari va xalq amaliy san'ati namunalari ko'rgazmasi ochildi.

Prezidentimizning shu yil 16-iyuldagi "Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li tavalludining 200-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida tashkil etilgan ushbu tabirning tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi Akmal Nur va boshqalar mazkur ko'rgazmaning ahamiyati xususida so'z yuritdi.

"Eng yaxshi milliy
kontent" tanlovi
g'oliblari aniqlandi

Poytaxtimizda O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tomonidan internet nashrlari jurnalistlari hamda ijtimoiy tarmoq faollari (bloggerlar) uchun e'lon qilingan "Eng yaxshi milliy kontent" respublika tanlovi g'oliblarini tantanali taqdirlash marosimi o'tkazildi.

Internet jurnalistikasi va blogerlik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan ushbu tanlovda 100 nafaraga yaqin internet nashrlari jurnalistlari hamda ijtimoiy tarmoq faollari – bloggerlar o'z ijodiy ishlarini, blog-postlarini elektron shaklda taqdim etishdi.

Tadbirda tanlov g'oliblari diplom va sertifikatlar bilan taqdirlandi.

"Xalq so'zi".

ZAMONAVIY BILIMLAR VA YANGICHA
DUNYOQARASH MASKANI

Chiroqchi tumanida akademik Qalandar Abdurahmonovning "Inson kapitali va sun'iy intellekt" ilmiy maktabi o'z faoliyatini boshladi

Ayni kunlarda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida yashaydigan aholi, ayniqsa, yoshlar ajoyib yangilikdan boxabar bo'ldi, sevinchiga sevinch qo'shildi. Gap shundaki, tumandagi 1-umumta'lim maktabi huzurida ayni shu ta'lim dargohida o'qib, kamol topgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Qalandar Abdurahmonovning navqiron avlodga zamonaviy bilimlar va yangicha dunyoqarash asosida ta'lim-tarbiya beradigan "Inson kapitali va sun'iy intellekt" ilmiy maktabi ochildi.

Ta'lim

Ushbu ta'lim muassasasining ochilish marosimida viloyat hokimi M. Azimov, idora va tashkilot rahbarlari, olimlar, o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar, keng jamoatchilik vakillari jam bo'ldi.

Dastlab maktabga sayohat uyushtirildi, qatnashchilar yangi ta'lim dargohining o'ziga xos qiyofasi va imkoniyatlari bilan tanishdi. Shundan so'ng tantanali tadbirda so'zga chiqqanlar, avvalo, akademikni bu xayri ishga qo'l urgani bilan qutlashdi, maktabning o'quvchilar hayotidagi ahamiyati, uning faoliyati kelajakdagi jamiyat taraqqiyotiga sezilarli ulush qo'sha olishi haqida so'z yuritdi.

Ushbu maskan tashkil etilishidan asosiy maqsad chiroqchiliklar, bu yerdagi bilim olishga ishtiyomand o'quvchi va o'qituvchilarga iqtisodiyot sohasida inson kapitali va sun'iy intellektni joriy qilishda ko'maklashish, dedi olimning shogirdi, professor Bahodir Umurzoqov. Shuningdek, ushbu maktab yoshlarimizning ilmiy yo'nalishdagi bilimlarini oshirish, kelajakdagi kasb tanlovinii shakllantirish, zamonaviy iqtisodiy bilimlarni yetkazishga yo'naltirilgan amaliy va ilmiy taqdimot ishlarini olib borishni ham niyat qilgan.

Ishonchimiz komilki, mazkur ilmiy maktab faoliyati yo'lga



qo'yilishi kelajagimiz egalaringiz ilm-fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi, iqtisodiyot sohasidagi zamonaviy bilim va tajribalar bilan tanishtirishda kamarbasta bo'ladi.

Aytish joizki, maktab faoliyati qat'iy reja asosida olib boriladi. Masalan, dargohdagi eksponatlar doimiy tarzda yangilanib boriladi va maktab inventariga kiritiladi, ularning saqlanishi qat'iy nazorat qilinadi. Ilmga chanoq yoshlar va yangi bilimlar bilan tanishish istagidagi o'qituvchilar uchun bir qator imkoniyatlarni taqdim etadi. Xususan, yaqin vaqtlar ichida maktab faoliyati bilan tanishtirish maqsadida tumanda joylashgan boshqa ta'lim muassasalari

o'qituvchi va o'quvchilarini reja asosida taklif qilish ham mo'ljallangan. Shuningdek, ilmiy maktab viloyatda faoliyat olib borayotgan oliygohlar rahbarlari, olimlar, hududlar rahbarlari bilan har oyda ilmiy, amaliy

oshirishni rejalashtirgan ishlari ham diqqatga sazovor. Ya'ni yaqin yillarda maktabda inson kapitali va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati haqida maxsus kurslar yoki qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etiladi, bilim talabgorlari sun'iy intellektni amalda qo'llashni o'rganishi uchun kompyuter laboratoriyalari ish boshlaydi. Robototexnika, kodlash va algoritmlar tuzish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Turli onlayn platformalarda amaliy dasturlash, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt bo'yicha kurslar ochildi.

Ayni chog'da maktabda o'qituvchilar tajribasini oshirish, bilimini mustahkamlashga ham alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, ularni qayta tayyorlash va malaka oshirish uchun ilmiy-amaliy tadbirlar tashkil etiladi, inson kapitali va sun'iy intellekt mavzulari bo'yicha qayta tayyorlash kurslari o'tkaziladi, xalqaro tajriba almashish dasturlariga jalb etiladi. Shuningdek, kelajakda xalqaro o'quv tashkilotlari va ilmiy markazlar bilan hamkorlik o'rnatish, o'quvchilarni ana shunday uchrashuvlarga tayyorlash, sun'iy intellekt sohasidagi zamonaviy ishlanmalarni maktablarda sinovdan o'tkazish uchun xalqaro grantlar va dasturlardan unumli foydalanish rejalashtirilgan.

Tantanali ochilish marosimida bir qator tashkilot va idoralar rahbarlari, olimlar "ZOOM" platformasi orqali tabrik yo'llashdi. Tadbir yakunida yangragan kuyog'chiqar davraga o'zgaracha fayz bag'ishladi.

Akram HOSHIMOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor.

"O'zbekiston
sanoat-qurilish
banki" aksiyadorlik
tijorat banki
aksiyadorlari
diqqatiga!

"O'zsanoatqurilishbank" ATB (Toshkent shahri, Shahrizabz ko'chasi, 3-uy manzili bo'yicha joylashgan, korporativ veb-sayti: sqb.uz, elektron manzili: info@sqb.uz) imtiyozli aksiyasiga ega aksiyadorlarga 2023-yil yakunlari bo'yicha dividendlar hisoblanganini ma'lum qilamiz.

Bir dona aksiyaning nominal qiymati 19 (o'n to'qqiz) so'm bo'lgan imtiyozli aksiyaga 23,0 foiz, ya'ni 4,37 (to'rt so'm o'ttiz yetti tiyin) so'm to'lab beriladi.

Bu boradagi qaror 2024-yilning 28-iyun kuni o'tkazilgan bank aksiyadorlarining 2023-yil yakunlari bo'yicha umumiy yig'ilishida chiqarildi (yig'ilish bayoni 2024-yilning 4-iyulida tuzilgan).

Shuningdek, bank aksiyadorlari bilan o'tgan yillardagi dividendlar bo'yicha ham taqqoslama ishlar olib borilmoqda. Unga ko'ra, mavjud qarzdorliklar aksiyadorlarga xizmat ko'rsatuvchi bankdagi hisobvaraqlari yoki shaxsiy plastik kartalariga to'lab kelinmoqda.

Hurmatli aksiyadorlar!
Hisoblangan dividendni olish uchun shaxsingizni tasdiqlovchi hujjat bilan bankning xizmat ko'rsatish ofislariga (aksiyador birlashtirilgan hududdagi) shaxsan tashrif buyurgan holda yoki elektron pochta manzili orqali (arizada aksiyadorga xizmat ko'rsatuvchi bank rekvizitlari, shaxsiy plastik karta hamda telefon raqamini to'liq ko'rsatib, pasport yoki ID kartaning skaner shaklini ilova qilgan holda) murojaat etishingiz mumkin.

Bank Axborot xizmati.

"TRASTBANK" TOMONIDAN MIKROLOYIHALAR UCHUN AJRATILAYOTGAN
MABLAG'LAR BANDLIKNI TA'MINLASHGA ZAMIN YARATMOQDA

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish, aholi farovonligini yaxshilash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Albatta, bu jarayonlarda "Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki jamoasi ham chetda turgani yo'q. Yuridik va jismoniy mijozlar, xususan, o'zini o'zi band qilgan shaxslarga taqdim etilayotgan kredit mahsulotlari natijasida hududlarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar soni tobora ortib, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Moliya muassasalarida

Besh oyda 5 mingdan ortiq
ish o'rinlari ochildi

Aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha "Trastbank" XAB tomonidan poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi Beltepa, Bo'ston, Gulobod, Taxtapul, Kamolon darvoza mahallalarida bir qator loyihalar ro'yobga chiqarildi.

Umuman, 200 ga yaqin amalga oshirilgan loyihalar natijasida salkam 500 nafar fuqarolarning bandligini ta'minlashga erishildi.

Joriy yilning may – avgust oylarida jami 193 ta loyiha ijrosi natijasida 487 nafar fuqaro ishli bo'ldi. Ushbu loyihalarni ro'yobga chiqarish uchun jami 3 mlrd. 382 mln. 400 ming so'm mablag' yo'naltirildi.

Bu esa bir nechta faoliyat turlari, jumladan, tikuvchilik, zargarlik, non va non mahsulotlarini tayyorlash, dehqon bozorlarida savdo qilish, sartaroshlik, yetkazib berish xizmatlari kabi yo'nalishlarda ish faoliyatini boshlab, mo'maygina daromad topishlariga zamin yaratdi.

Yana bir jihat. Har bir mahalla drayveri bo'yicha aholi alohida maxsus kurslarda o'qitildi va ish bilan ta'minlandi. Zotan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, kambag'allikni qisqartirish faqat pul tarqatish, nafaqa to'lash bilan hal bo'lmaydi. Buning uchun kambag'al oila

a'zolarini o'qitish, kasbga o'rgatish va ish bilan ta'minlash muhim.

Toshkent shahrida aholi bandligiga erishish bo'yicha moliya muassasasining reja ko'rsatkichlari belgilangan bo'lib,



aprel – avgust oylarida 5 mingta yangi ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan edi. Bu ko'rsatkich amalda 5 421 taga yetkazilib, "yangiish.mehnat.uz" platformasiga kiritildi.

Bundan tashqari, "Trastbank" XAB tomonidan jami 660 mln. so'mlik homiylik mablag'lari ajratilgan bo'lib, buning natijasida 13 nafar ayolga uy sharoitida turli pishiriq mahsulotlarini tayyorlash va yetkazish uchun pech hamda tikuvchilik

Oila byudjetiga mo'may
daromad keltirmoqda

Shayxontohur tumanidagi "Beltepa" mahalla fuqarolar yig'inida jami 8,5 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi.

ishsiz fuqaro kasbga tayyorlov kurslarida o'qitildi.

Yakka tartibdagi tadbirkor Saidkomil Hoshimov "Trastbank"dan 100 mln. so'm miqdorida kredit olib, kimyoviy tozalash xizmatini yo'lga qo'ydi.

– 2024-yil iyun oyidan o'z ish faoliyatimizni boshladik, dedi u. – Bu borada "Trastbank" bizga katta yordam ko'rsatib, qisqa fursat ichida kredit mablag'larini ajratib berdi. Buning natijasida mahallamizdan 2 nafar yoshni ish bilan ta'minladik. Ular shu hududning o'zida yashashi, yo'lkira, ortiqcha xarajatlarga pul sarflamasligi bois oila byudjetiga yaxshigina foyda keltirmoqda. Kelajakda o'z tadbirkorlik

Yoshlar ham hunarli, ham
daromadli bo'lmoqda

7 ming 830 nafar fuqaro istiqomat qiluvchi Gulobod mahallasida jami 39 ta – umumiy qiymati 386 mln. so'mlik istiqbolli loyihalar amalga oshirildi. Buning natijasida 84 ta yangi ish o'rni yaratildi. Qolaversa, mahalladagi 8 nafar fuqaro qayta tayyorlov kurslarida o'qitilib, kasb-hunarga yo'naltirilmoqda.

Ushbu mahallada yashovchi Hojiakbar Yo'ldoshev 30 yildan buyon sartaroshlik bilan shug'ullanib, xalqimizning duosini olib kelmokda. Yaqinda u o'z faoliyatini yanada kengaytirish maqsadida "Trastbank"ka qilgan murojaati ijobiy yechim topdi.

– "Trastbank"dan kredit olib, mahallamizda yangi, shinamgina sartaroshxona ochildi, dedi Hojiakbar Yo'ldoshev. – Hozirda 2 nafar shogirdim bilan manzildoshlarimizga xizmat ko'rsatmoqdamiz. Ular oliy o'quv yurtidagi mashg'ulotlaridan keyin shu yerda hunar o'rganishmoqda. Bundan tashqari, oylik daromad manbaiga ham ega bo'lishgan. To'g'risini aytсам, bu yoshlarga havasim keladi. Boisi ham hunarli, ham daromadli bo'lishmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, kambag'allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylangan bir paytda bu kabi amalga oshirilgan ishlar katta ahamiyatga molik. Zero, mahallabay ishlar tizimi asosida aholining turmush tarzini yaxshilash, har bir mahalla drayverini aniqlab, bu borada aholini o'qitish va kasb-hunarga yo'naltirishga har birimiz hissa qo'shishimiz zarur.

"Xalq so'zi".

Xizmatlar litsenziyalangan.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilishi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatli muharrir R. Bobojonov.
Musahhif S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.05 Topshirildi – 00.20 1 2 3 4 5 6